



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSİYALAR, SANOAT VA SAVDO VAZIRLIGI

MINISTRY OF INVESTMENT, INDUSTRY AND TRADE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUYRUQ 41-İ

«1» iyun 2023 -yil

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq, **buyuraman:**

1. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi:

iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini litsenziyalash;

tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini litsenziyalash;

alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bo'yicha faoliyatni litsenziyalash;

pivo va pivo ichimliklari (tabiiy vino bundan mustasno) ishlab chiqarish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnomani qabul qilish bo'yicha vakolatli organ ekanligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Akkreditatsiya va litsenziyalash bo'limi Tamaki va ichimlik mahsulotlari sanoati boshqarmasi bilan birgalikda:

litsenziya berish to'g'risidagi arizani qabul qilish va ko'rib chiqish, litsenziyani berish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash hamda tugatish;

litsenziyani bekor qilish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olish jarayoni bilan bog'liq tartib-taomillar majmuini amalga oshirsin.

*000001016

3. Vazir o'rinbosari Teshabayev Xurram Fatixovichga litsenziyalash va xabardor qilish tartib-taomillari maxsus elektron "Litsenziya" axborot tizimi orqali amalga oshirish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qarorni qabul qilish vakolati (elektron tizimda imzolash) berilsin.

4. AKT va raqamlashtirish boshqarmasi (A. Axmedov) "Litsenziya" axborot tizimi texnik jihatdan uzluksiz va doimiy ishlashini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



L. Kudratov